

ÓZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYASI VA UNGA KIRITILGAN YANGI NORMALAR.

Azbergenova Munira Charjavna

QDU talabasi @munirazbergenova5@gmail.com

Shamshetova Zulxumar Karamatdinovna

QDU talabasi @zulxumarshamshetova2003@gmail.com

Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi renessansni barpo etish yo'lida
mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi¹³

Annotatsiya: Bilamizki, jamiyatimizda Konstitutsiyamizning o'rni katta. Agar biz rivojlangan davlatlarning tajribalari haqida gapiradigan bo'lsak, vaqt o'tishi bilan ularning ramzlari ham zamon talablariga mos ravishda o'zgarib bormoqda. Shu munosabat bilan 2023 yil 1 maydan O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ushbu maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz va unga kiritilgan yangi me'yorlar haqida gap boradi.

Kalit sózlar: Konstitutsiya, islohotlarimizning bosh maqsadi, Yangi Ózbekiston, Prezident vakolat muddati, Ommoviy axborat vositalari, Senatorlar sonining ózgarishi.

Konstitutsiya har bir davlatning asosiy qonuni bo'lib, uning siyosiy tizimini, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini, davlat boshqaruvi tamoyillarini belgilab beradi. Konstitutsiyaviy islohotlarimizning bosh maqsadi – inson qadri, xalq manfaatini amalda ta'minlashdir.

Hozirgi kunda yer yuzida mavjud davlatlarning deyarli barchasi o'zlarining erkin siyosati, tili, davlat ramzlariga ega. Milliy ramzlar qatorida tilga olinadigan konstitutsiyaga O'zbekiston Respublika ham ega ekanligi barcha mamlakat fuqarolarining baxtidir. Yangi O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati barpo etish va insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish yo'lida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingandan buyon o'tgan 30 yillik taraqqiyot yo'lli davomida mamlakatda erishilgan barcha natijalar, xususan, inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanishi, inson qadr-qimmatining ulug'lanishi, davlat boshqaruvining eng samarali mexanizmlari joriy etilishi, fuqarolik jamiyati asoslарining vujudga kelishi va rivojlanishi, erkin bozor

13 <https://president.uz/oz/lists/view/6277>

iqtisodiyoti yoiliga o'tilishi kabi yutuqlar aynan Bosh Qomusimiz, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va u asosida qabul qilingan qonunlarning izchil amalga oshirilishi natijasida qo'lga kiritildi.

1992-yil 8 dekabrda mamlakat parlamenti tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqillik yillarda islohotlar talabi asosida bosqichma-bosqich takomillashtirib borildi. Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

Yangilangan Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir. Ushbu Konstitutsiya yurtimizning ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga, aholimiz turmush farovonligi hamda qonuniy huquqlari va manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini kafolatlashiga ishonamiz va barchamiz bu yo'lida astoydil harakat qilishimiz lozim. 2023 yil 1 maydan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 65 foizga yangilandi. Konstitutsiyaga muhim sohalarga oid bir qancha samarali o'zgarishlar kiritildi.

Ayniqsa O'zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Barcha noaniqliklar – inson foydasiga hal qilinadi boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligin konsitutsiya darajasida alohida kiritildi. Yangilangan Konstitutsiyamizning birinchi moddasida O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb, qat'iy belgilab qo'yilgani tarixiy ahamiyatga ega deya kórsatilgan. Endilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi.

Chuningdek Yangilangan Konstitutsiyamizda ilgari sóz etilmagan bir mavzu tilga olindi. Bu O'qituvchilarning alohida e'tirof etilishidir. Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo'Imagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishni va ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishini konsitutsiya darajasiga ko'tardi.

Bundan tachqari davlat boshqaruvidagi eng sezilarli o'zgarishlar qatoriga Prezidentning vakolat muddati 7 yil bo'lb ózgarishi boldi. O'zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasiga binoan:

Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Prezidentning "davlat boshlig'i" maqomi saqlab qolindi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo'lishi mumkin emasligi, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar ham o'zgarishsiz qoldirildi.

Senatorlarning soni 100 nafardan 65 nafarga tushirilishi ham shu ózgarishlar qatoridan edi. 14 ta hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadigan boldi. Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o'zgarish 2024 yilda bo'ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kirishi belgilandi

Avvalgi konstitutsiyamizning "Ommaviy axborot vositalari" nomli bobida bitta modda kórsatilgan edi. Unda shunday deyilgandi: "Ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riliqi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi".

Yangi konstitutsiyamizga ko'ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo'ldi:

- Ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

- Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Yuqoridaqilardan tashqari, konstitutsiyaga boshqa ko'plab normalar ham qo'shilgan va bu kiritilgan o'zgarishlarning barchasining ma'noma'mzuni, bosh maqsadi ham xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratib berishdan iboratdir. Mazkur islohatlar avvalambor, xalqning ruhiyatini ko'tarishga, uning ichki imkoniyatlarini ko'paytirishga, shaxs sifatidagi kamolotini yuksaltirishga, uning qadr-qimmatini ulug'lashga, hurmatini joyiga qo'yishga qaratilgani bilan dolzarb va ahamiyatlidir.

Konstitutsiyamiz loyihasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo'lgan davrda o'tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz faol va munosib ishtirok etdilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz kóbgina.

Eng muhimi, endi islohotlarimiz yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz, "inson – jamiyat – davlat" degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Konstituciyani referendum arqali ózgerttiriw usinis etildi // URL: www.interkomitet.uz
2. Konstituciyadagi yangi normalar va ularning tahlili. F.Q. Qutlimuratov, H.A. Akmalov. (Metodik qollanba) –Nukus; 2023. -84b.
3. «Mámlekет puqaralıq xızmeti haqqında» Ózbekstan Respublikasınıń 2022-jılı 8-avgusttaǵı ÓRN-788-sanlı Nızamı. Ózbekstan Respublikası nizamshılıq hujjetleri toplami, 2022-jil 32(1052)-san, 292-statya
4. Insan huquqlari. A.R.Mominov, M.A.Tillaboev. Sabaqlıq. Ekinshi baspa. -T.: Adalat, 2013. -290b.
5. Insan huqıqları dunya juzlik deklaraciyası. URL: <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>